

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti**

Tarix fakulteti

O'zbekiston tarixi kafedrası

O'zbekiston tarixi fani

***Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zini-o'zi
boshqarish organlari***

Kurs ishi

2014-2015 o'quv yili

Bajaruvchi: 3-kurs talabasi Mahammadiyev D.

Ilmiy rahbar: Qo'shboqov H.

**Kurs ishi O'zbekiston tarixi kafedrası komissiyasida himoya qilindi
va _____ ga baholandi. (Bayonnoma № _____ 2015)**

Komissiya raisi: _____

Komissiya a'zolari: _____

Samarqand 2015-yil

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zini-o'zi boshqarish organlari

Reja

Kirish

Asosiy qism

- 1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish.**
- 2. Saylovga tayyorgarlik ko'rish paytida yig'inlarni amalga oshirish.**
- 3. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari.**
- 4. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosida huquqiy demokratik davlatni barpo etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Uning 7-moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir», – deyilgan. Konstitutsiyaning 2-moddasida esa «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi», deb ta'kidlangan.

Hozirgi zamon jahon davlatchiligi tajribasida davlat zimmasidagi vazifalar ancha o'zgardi. Bu, ayniqsa, totalitar tuzum iskanjasidan chiqqan xalqlar uchun butunlay yangilik edi. Jumladan, endi u ko'proq iqtisodiy asoslarni mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarni chuqurlashtirish, odamlar madaniy va moddiy turmush darajasini oshirishning strategik tamoyillarini ishlab chiqish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tinchligini mustahkamlash va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

«Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar – tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi», degan edi Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-24-fevral kunlari bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992

Davlat o'z vazifalarini bajarishda hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha demokratik omillarni kengaytirish, keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo'li bilan amalga oshirishi lozim. Buning uchun jamiyatda keng miqyosli demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolar haq-huquqlarini kengaytirish, jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash, jamiyatda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillikka erishish asosida davlat monopoliyasini yo'qotish kerak. Boshqacha qilib aytganda, davlat endi ko'proq fuqarolar haq-huquqini kafolatlaydigan mexanizmga aylanishi kerak. Buning uchun quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1. Milliy an'analarga, aholi barcha qatlamlari va ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga, xalq hayotining tarixiy tajribalariga tayangan holda demokratik asoslarni mustahkamlash.

2. Hokimiyat bo'linishining eng demokratik, eng xalqchil shakllarini yanada chuqur va faolroq joriy etish.

3. Boshqaruvni markazlashtirmaslik, respublika va mahalliy hokimiyatlar vazifalarini aniq belgilash, Markaziy organning ko'pgina vakolatlarini joylarga – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar, tuman hokimiyatlari zimmasiga yuklash, biroq bu markazdan uzoqlashish, har qanday muammoni o'z xohishicha hal etish imkonini bermaydi.

Ma'lumki, jamiyatni demokratlashtirishning yana bir muhim sharti odamlarning ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar sur'atlari bir-biriga qanchalik mos bo'lishidir. Shuning uchun ham demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni, ularni hayotga tatbiq qilishni, avvalambor,

jamiyatning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu o'rinda mahallalarning o'rni va o'z-o'zini boshqarish tartibotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib, ko'r-ko'rona ko'chirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Unga tinimsiz intilish bilan hayotning og'ir sinovlariga bardosh berib erishish mumkin.

Osiyo mintaqasi va musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. **«Bizning mamlakatimizda, – deb ko'rsatgan edi I.A.Karimov, – demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor.»** Bunday qadriyatlar respublikamiz sharoitida avvalo aholi zich yashaydigan mahallalarda shakllanadi. Shuning uchun respublikamizda mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda mahallalar rolini oshirishga katta e'tibor berildi².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ta'kidlanishicha, «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalar hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini

² Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: "O'zbekiston", 1996

saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi».

Darhaqiqat, mahalla – O'rta Osiyoda shaharlar ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan belgilangan. Shuning uchun ham undan minglab kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etishning samarali vositasi sifatida foydalanish lozim.

Ong va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar hamisha qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Jumladan, yillar mobaynida ongimiz va tafakkurimizga singib ketgan tanballik, imon-ixtiyorimizni «yuqori»ga topshirib qo'yish illatlari bugungi demokratik jarayonlarga to'siq bo'lmoqda. Uning salbiy oqibatlari chuqurlashib borayotgan yangilanishlar mohiyatini anglashga, butunlay yangi turmush tarzining shakllanishiga, inson haq-huquqlarining kengayishiga va jamiyatda shaxs rolining oshib borishiga monelik qilmoqda.

Ijtimoiy turmushning hamma sohalarini demokratiyalash, o'zini o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirish, o'z hayotini o'zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirish nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. U siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy sohalarida yangicha tafakkur tarzini talab etadi. Bu jarayon chin ma'noda har bir fuqaro mehnati,

yaratuvchilik qobiliyati orqali o'z turmushini izga solishi asosida butun jamiyat hayotini mazmunan yangilash, unga butunlay yangi qiyofa baxsh etish bilan bog'liq. Bu o'z navbatida jamiyatni tubdan isloh qilish jarayonida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish mahalliy organlari faoliyatini tubdan o'zgartirishni, uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida qaytadan tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini uchta hududiy bo'g'inga bo'lish mumkin. Birinchi hududiy bo'g'inga xalq deputatlari shahar, tumanga bo'ysunadigan shaharlar, shaharlardagi tuman kengashlari kiradi. Ikkinchi hududiy bo'g'inga xalq deputatlari tuman, Toshkent shahridagi tuman, shahar kengashlari kiradi. Uchinchi hududiy bo'g'inga esa xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashlari kiradi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining barcha bo'g'inlari huquqiy shaxs hisoblanadilar va ular qonun bilan o'z ixtiyoriga berilgan istalgan masalalarni mustaqil hal qilishga haqlidirlar. Mahalla o'zini o'zi boshqarishning asosiy bo'g'ini. Bu aholining ijtimoiy masalalarini hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalla O'rta Osiyoda qadimdan hududiy-ma'muriy birlik hisoblanadi. Bu yerda har bir yashovchi taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat'iy nazoratda turgan. Bir-biri bilan hisoblashib yashagan. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an'analariga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma'naviy-axloqiy udumlariga bog'liq bo'lgan ulkan hayot maktabi.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini takomillashtirish asosida mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish maqsadida Oliy

Kengashning 1993-yil sentabrda qabul qilgan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun, alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Tub islohotlar davrining eng muhim va dolzarb talablariga muvofiq tarzda yuzaga kelgan ushbu qonun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish va uni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida ta'kidlangan. Uning 105-moddasida «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari, o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi» deyilgan. Bu bilan mamlakatimiz birinchi marta fuqarolar yig'ini o'zini o'zi boshqarish organi sifatida e'tirof etildi va ularning huquqiy maqomi, vakolatlari qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi³.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini bajarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik masalalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, mamlakat hukumatining qarorlarini bajarishda yordamlashadi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni ifodalovchi muhim belgilardan biri o'z faoliyatini hududiy tamoyil asosida tashkil etishdir.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992

Ma'lum bir hudud birlashgan jamoa o'zini o'zi boshqarish idoralarini ma'lum turarjoy mavzesi, qishloq, posyolka, ko'cha hududida tashkil etadi.

Mazkur qonunning 2-moddasida hududiy yondashishning o'ziga xos xususiyatlari alohida belgilangan. Jumladan, mahallalar faoliyat ko'rsatayotgan hududlar fuqarolarining taklifiga ko'ra tuman, shahar hokimi tomonidan belgilanib, qabul qilingan qaror tegishli hokimliklar tomonidan tasdiqlanadi.

Qonun fuqarolar yig'inida yoki majlisida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy me'yorlar va imtiyozlarni ko'rsatib berdi. Fuqarolar yig'ini unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarmi, vakillar majlisi esa delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga kiradi. Yig'inni rais yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va u hokimga yuboriladi.

Bularning hammasi mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari faoliyatining demokratik asoslari mahalliy sharoitga yaqinlashtirilganini, ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berilganini va aholining jamiyatni boshqarishda mumkin qadar ko'proq ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular qonunning 17-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqarolar faolligini oshirish, shu asosda o'z turmushini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda mamlakat «Mahalla» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ayni paytda mahalla qo'mitalari o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kambag'al oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarni olib bormoqda⁴.

Hukumat dastlab budget hisobidan 25 million so'm mablag' ajratdi. Bu joylarda mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatdir. Keyingi yillarda ham fuqarolarning turmush tarziga, ularning xulqi va kayfiyatiga odatda qishloq va mahalla qo'mitalariga saylanadigan hurmatli oqsoqollar ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kuch ekanligini hisobga olib qishloq va mahalla komitetlarining roli va obro'sini yanada mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Mamlakatda mahalla qo'mitalari raislari hamda kotiblariga oylik ish haqi belgilandi. Qisqa vaqtda bu maqsadlarga mahalliy budgetdan 10 million so'mga yaqin mablag' ajratildi. 1994-yil oxirlariga kelib respublikada 12,4 ming mahalla shakllantirildi. Ular o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, o'zlari haqidagi Nizomga, mahalliy hokimiyatning mahalla fuqarolarining yig'ilishi haqidagi qarorlariga amal qilib ish tuta boshladilar.

O'zbekistonda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini takomillashtirish kundalik hayotimizda demokratiyani

⁴ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: "O'zbekiston", 1996

chuqurlashtiradi, davlat rolini asta-sekinlik bilan mahalliy organlar zimmasiga yuklaydi. Bu hozirgi zamon jahon ilg'or tajribalariga mos keladi va dunyoviy davlat tamoyillarini boyitadi.

Yuqorida o'zbekning mahalla-mahalla bo'lib birlashib, o'zini o'zi idora qilib yashash tarzining ildizlari g'oyat chuqur ekanligi ta'kidlandi. Endi ular faoliyatini yangi sharoitlarda, yangicha mazmun bilan boyitish ham hayotiy zaruriyat bo'lib qoldi. Bu borada keyingi yillarda Chilonzor tuman hokimligi va xalq deputatlari tuman Kengashi ibratli ishlarni amalga oshirdi. Ular mahalla ahlining ko'p asrlik tajribalaridan va eng odilona boshqaruv usulidan samarali foydalanish maqsadida mavzelnarni ham mahallalarga aylantirishga qaror qildilar. Tuman hududida avvaldan mavjud bo'lgan 19 ta mahallalar qatoriga mavzelar va bir qator turarjoylarda yangitdan tashkil etilgan 25 ta mahalla qo'shildi. Ular soni 44 taga yetdi. Ayni paytda bu yerlarda keng miqyosli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy tadbirlar amalga oshirildi. Bular aholini o'z o'zini boshqarishdagi ishtirokini yanada kengaytirmoqda.

Shunday qilib, 90-yillarning o'rtalariga kelib, mustaqil O'zbekistonning viloyat va shaharlari hududlarida ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lgan mahallalar soni, ularning aholi o'rtasidagi roli ortib borishi ham respublikada ijtimoiy hayotning yanada demokratlashib borayotganini ko'rsatadi.

Albatta, keyingi yillarda istiqlool tufayli yangidan qaddini ko'tarayotgan mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berganini o'z-o'zini boshqarish organlariga bo'lib o'tgan saylovlar ham ko'rsatdi. Buni 1996 yil may-iyun oylarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar yakunlaridan ham bilish mumkin.

1996-yil 2-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar yakunlari» ko'rib chiqildi. Ushbu qarorda ko'rsatib o'tilishicha respublikada bu muhim siyosiy tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rildi.

Avvalo shuni aytish kerakki, Oliy Majlis Kengashi 1996-yil 13-mart kuni fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini o'tkazish masalasini maxsus muhokama qildi va shu asosda zarur tashkilotchilik ishlari olib borildi. Fuqarolar yig'inlari va ularning raislari saylovini o'tkazish haqidagi qonun matni 4 ming nusxa atrofida ko'paytirilib, Qoraqalpog'iston Juqarg'i Kengesi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga amalda foydalanish uchun yetkazib berildi. Shuningdek, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazishga doir tavsiyanomalar ishlab chiqildi. Bu «Mahalla» gazetasida e'lon qilindi. Viloyat, shahar va tumanlarda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish yig'inlari raislari, ular maslahatchilari saylovini o'tkazishga doir amaliy seminarlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, viloyat hokimlari o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kotibiyati mas'ul xodimlari ishtirok etdilar⁵.

Seminar-kengashlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hokimiyat vakillik organlarining ishonchli yordamchisi tariqasida o'zini ko'rsatib, jamiyatda fuqarolar totuvligini

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992

mustahkamlashga ko'maklashayotgani alohida ta'kidlandi. Kam daromad oilalarga va muhtoj kishilarga yordam ko'rsatmoqda, hududlarni obodonlashtirish yuzasidan keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat qishloqlari va ovullarida fuqarolarning 1436, shaharlarida 117, mahallalarda 5402, shu jumladan qishloq mahallalarida 3305 o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, ularning raislari jamoatchilik asosida ish olib bora boshladilar.

Samarqand, Namangan va Toshkent viloyatlarida qishloqlar kattagina hududni egallaganliklarini inobatga olgan holda ana shu viloyatlar qishloq mahallalarida o'zini o'zi boshqarish organlari tuzildi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish paytida yig'inlarning amaldagi raislari faoliyati tahlil etildi. Bu ish xususan Samarqand, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida namunali o'tkazildi. Hammasi bo'lib mamlakatda 6 ming 955 yig'in raisi va 60 mingdan ortiq maslahatchi saylandi. Qishloq, ovul va shaharlarning, shaharlardagi mahallalarning yig'inlari raislarining 84 foizidan ortig'i shu lavozimiga ikkinchi muddatga saylandi, bu ko'rsatkich maslahatchilar orasida 65 foizdan ortiqrog'ini tashkil qildi.

O'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining umumiy ma'lumot darajasi ancha oshdi. Oliy ma'lumotli yig'in raislari Qoraqalpog'iston respublikasida 68,6 foizni, Toshkent shahrida 68,7 foizni, Navoiy viloyatida 87,5 foizni tashkil etdi.

1993-yilgi saylovga nisbatan 1996-yilgi saylov kompaniyasida xotin-qizlarni yig'in raisligi va yig'in maslahatchilari tarkibiga saylashga e'tibor berildi. Jumladan, yig'in rahbarlari orasida xotin-

qizlar miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Buxoro va Namangan viloyatlarida 20 foizdan ko'proqqa, Toshkent shahrida esa qariyb 2 barobarga oshdi.

Bo'lib o'tgan saylov saylovchilarning yuksak faolligi bilan ajralib turdi. Yig'inlar ishchanlik vaziyatida o'tdi. So'zga chiqqan kishilar bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich o'tkazilayotganligi, kuchli ijtimoiy himoya siyosati yuritilayotganligi, ma'naviy qadriyatlar va xalq an'analari tiklanayotganligi, barqarorlik, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy totuvlik ta'minlanganligi uchun Hukumatga minnatdorchilik so'zlarini bayon etdilar.

Mamlakatimizda 1993–2007-yillar mobaynida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy asosini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 10 ta farmoni, Vazirlar Mahkamasining 11 ta qarori, Parlamentning 30 dan ortiq Qonunlari qabul qilindi.

Jumladan, Prezident I.Karimovning «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi (1998-yil 23-aprel), farmoni va O'zbekiston Respublikasining 10 yilligi tantanasida Prezidentimiz tomonidan 2003-yilni «Obod mahalla yili» deb e'lon qilinishi va Prezident Farmoyishi asosida Vazirlar Mahkamasining «Obod mahalla yili» Dasturi to'g'risida»gi (2003-yil 7-fevral) qarori mahallaning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatidagi roli va ahamiyatini oshirish, milliy qadriyat va an'analari, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashdagi nufuzini ko'tarish, aholini moddiy va ma'naviy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Prezident Farmoyishi bilan «Obod mahalla yili» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi.

Mazkur komissiya davlat, nodavlat hamda jamoat tashkilotlari, shuningdek, mahallalar vakillarini keng jalb etgan holda mahallalarimizdagi mavjud muammolar, qilinishi lozim bo'lgan ishlarni atroflicha o'rganib, yil davomida amalga oshirilishi zarur. Tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarning kompleks dasturini ishlab chiqdi. Mazkur dastur yetti yo'nalishdagi hayotiy muhim masalalarni o'z ichiga qamragan. Ular qatoriga, jumladan:

- mahalla faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- mahallaning moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlash;
- mahallalarda tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va savdoni, kichik biznes sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini barpo etish;
- mahallaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish va ko'kalamzorlashtirish, bolalar sport maydonlarini jihozlash, yo'llar, ko'chalar va kommunal tarmoqlarni yaroqli holatda saqlanishini ta'minlash;
- mahalla tomonidan kam ta'minlangan oilalarga aniq yo'nalishli moddiy yordam ko'rsatish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish;
- mahallalar aholisiga tibbiy va sanatoriy - kurort xizmati ko'rsatishni yaxshilash, bolalar sportini rivojlantirish;
- ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarida mahalla faolligini oshirish vazifalari kiradi.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, 1999-

yilning 14-aprelida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonun 29 moddadan iborat bo'lib, unga uch marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Qonunga ko'ra shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Hozirgi kunda respublikamizda 8794 ta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mavjud bo'lib, ularning 1629 tasini shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'ini, 4887 tasini ular tarkibidagi mahallalar fuqarolar yig'ini hamda 2278 tasini shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig'ini tashkil etadi⁶.

Yangi tahrirdagi qonunda avvalgisidan farqli ravishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mustaqilligiga oid muhim normalar o'z aksini topdi. Xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi ko'rsatildi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari belgilandi. O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublika oqsoqollari Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkinligi nazarda tutildi.

2003-2004-yillarda qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomi yanada aniqlashtirildi. Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar bilan fuqarolar yig'ini tushunchasi, tuzilishi, fuqarolar yig'inining Nizomi, respublika oqsoqollar Kengashi,

⁶ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: "O'zbekiston", 1996

shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi, vakillik normasi hokimlar tomonidan emas, balki tegishli muvofiqlashtiruvchi kengashlar tomonidan belgilanishiga oid va boshqa normalar, shuningdek, fuqarolar yig'inining o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruv komissiyasini tuzish, «mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining rahbarini tayinlash va tuzilmaga a'zolar qabul qilish, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy – axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisini tayinlash vakolatlari qonun bilan mustahkamlandi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida amalga oshirilayotgan izchil yangilanish va o'zgarishlar jarayoni «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu o'z navbatida, mazkur qonunning islohotlar talablariga qanchalik javob bera olishini o'rganish, tizimli tahlil qilish, shuningdek, qonunda belgilangan normalarning qo'llanish darajasini, holatini aniqlash, baholash, istiqbolini prognoz qilish maqsadida uning monitoringini o'tkazish zaruratini vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi **«Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida»**gi qarori bilan tasdiqlangan davlat qurilishi va boshqaruvi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning roli va ta'sirini kuchaytirish sohasida islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish

konsepsiyasiga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va vakolatlarini kuchaytirish maqsadida ularga davlat tomonidan yordam berish shakllarini tartibga solish, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa muammolarni hal qilish uchun ularning huquq va vakolatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi takliflarini ishlab chiqish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat yordamini ko'chaytirishga doir tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining jamiyatdagi roli va o'rnining oshib borishini 2006-yil may-iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolar yig'ini raisi va maslahatchilari saylovi natijalaridan ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda 2006-yil 4-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi may-iyun oylarida «Fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorni amalga oshirish maqsadida mamlakatda juda katta tayyorgarlik ko'rildi. Avvalgi yillarda o'tkazilgan saylovlardan farqli o'laroq ushbu saylov birinchi marta 2004-yilda qabul qilingan «Fuqarolar raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq o'tkazildi.

Saylovni tashkil etish va o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun davlat idoralari tomonidan joylarda 199 ta tuman hamda shahar komissiyalari tuzildi, 8843 ta ishchi guruh tashkil etildi. Ular tarkibiga «Mahalla» jamg'armasi, O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va

O'zbekiston ijtimoiy harakati hududiy bo'linmalarining vakillari kiritildi. Komissiyalar va ishchi guruhlariga ishda foydalanish uchun 12 ming nusxadan ortiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining matnlari maxsus nashr etilgan risolalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar o'tkazish masalalariga doir bir qancha qo'llanma va risolalar yuborildi.

Saylovlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatlari faol ishtirok etdilar⁷.

Shuni aytish joizki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar keng oshkoralik va ochiqlik vaziyatida o'tdi. Ommaviy axborot vositalari saylovning borishini keng yoritdilar.

Umuman olganda, saylov tadbirlarida 12 million 315 ming 818 saylovchi nomidan 574687 nafar vakil ishtirok etdi. Ular 27715 nomzod orasida 8843 nafar fuqarolar yig'inlari raislarini muqobillik asosida sayladilar. Ular orasida 2895 nafar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) yoki ular umumiy sonining 32,7 foizi ilk bor saylandi. Shuningdek, 84375 nafar fuqarolar yig'inlari raislarining maslahatchilari ham saylandi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fuqarolar yig'ini majlislarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidagi, davlat hokimiyatining mahalliy ijro organlarining muhim ijtimoiy, uy-joy-kommunal va boshqa masalalarni hal etishdagi mavjud kamchiliklar tanqidiy va ochiq muhokama etildi. Xususan, joylarda mavjud bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda muhtoj oilalarning bolalariga nafaqalar tayinlash masalasini adolat bilan hal qilmaslik hollari, fuqarolar yig'inlari bilan uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik yetarli emasligi va boshqa aholi e'tiroziga sabab bo'layotgan muammolar qayd etildi.

143 ta fuqarolar yig'inlarida ular rahbarlarining o'tgan davrdagi ishi qoniqarsiz deb topildi, oqsoqollarga ishonchsizlik bildirildi va ular qayta saylanmadilar.

Umuman, fuqarolar yig'inlari saylovi kompaniyasi yakunlarini tahlil qilib aytish mumkinki, yig'inlar raislari va maslahatchilarining bo'lib o'tgan saylovi, shuningdek, kelgusi davrga mo'ljallangan faoliyat dasturlari keng muhokama etilib qabul qilinganligi jamiyatimizni demokratiyalashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lida muhim qadam, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish shaklini qaror toptirish va mustahkamlashning eng muhimi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning navbatdagi bosqichi bo'lib qoldi.

2008-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga ko'ra shu yilning noyabr-dekabr oylarida barcha mahallalarda saylovlar oshkoralik va yakdillik bilan o'tkazildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992.
2. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: "O'zbekiston", 1996.
3. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. - T.: "O'zbekiston" 1996.
18. Sharifxo'jayev M. O'zbekiston: Yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. -T.: "Sharq", 2002.
19. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinichi-kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: "Sharq", 2000.
20. O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi.- T.: " O'zbekiston", 1992.
21. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q., G'aniyev D). - T.: "O'zbekiston", 1994.